

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA MUSIQA SAN'ATINING TASNIFI

Umrzakov Islom Ilhom o'g'li
Mirzo Ulug'bek tumani
Yoshlar ishlari bo'lim boshlig'i
Email: umrzakov.islom@mail.ru
Tel: +998999210768

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining musiqa san'ati o'ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlari falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, musiqa san'atining inson ma'naviy olamiga ta'siri ilmiy asosda bayon qilingan, musiqa san'atining eng qadimgi va o'rta asrlardagi ijtimoiy jarayonlarga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: «zamzama», «tarona», «suvora» («asp ros»), «Zirofkand», «Xusravoniy», «Navro'zi Bo'zrug», «Navro'zi Ajam», «Navro'zi Xoro» maqom yo'llari, «oranjirovka» ustalari.

КЛАССИФИКАЦИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В статье представлены взгляды мыслителей Центральной Азии на специфические особенности музыкального искусства с точки зрения культуры. Влияние музыки на духовный мир человека также подвергалось научному анализу. Кроме того, обосновывается влияние музыкального искусства на общественные процессы в античности и средневековье.

Ключевые слова: «замзама», «тарона», «сувора» («аспид рос»), «Зирофканд», «Хусраваний», «Наврузи Бозруг», «Наврузи Аджам», «Наврузи Хоро» макомные тропы, «аранжировка» «мастера».

CLASSIFICATION OF MUSICAL ART IN THE VIEWS OF CENTRAL ASIAN THINKERS

Abstract: This article presents the views of Central Asian thinkers on the specific features of the art of music from a cultural perspective. The impact of the art of music on the spiritual world of man is also analyzed on a scientific basis. In addition, the impact of the art of music on social processes in the most ancient and medieval centuries is substantiated.

Keywords: “zamzama”, “tarona”, “suvora” (“asp ros”), “Zirofkand”, “Khusravoniy”, “Navru'zi Bo'zrug”, “Navru'zi Ajam”, “Navru'zi Khoru” maqom paths, masters of “oranjirovka”.

Kirish. Bugungi O'zbekiston hududida Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Shu ma'noda, o'zbek

olimi B.Madrimovning arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari, Sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar, sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari va nihoyat, o'rta asrdagi Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlarning musiqiy risolalari tarjimasi o'zbek xalqining musiqa madaniyati tarixiy taraqqiyotining maxsuli [1] degan fikrlariga qo'shilish mumkin. Fikrimizcha, o'zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari Markaziy Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlari X-XI asrgacha o'zida bir butunlikni ifoda etadi, keyinchalik u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo'lib xizmat qilgan. Chunki tarixiy manbalarda Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi mil. Avv. birinchi ming yillikdan boshlangan. O'troq dehqonlar (sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) yashash uchun kurash jarayonida axloqiy va ma'naviy madaniyati rivojlanib borgan. Bu xalqlarning hayoti haqidagi ma'lumotlarga ko'ra xalqning musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarda shakllangan.

Adabiyotlar tahlili. Vaqt o'tishi bilan musiqiy qarashlar, ularni tadqiq etish, yo'nalishlarni belgilash, mentalitetdan kelib chiqib asarlarni ijro etish va his qilish o'zgarib bordi. Bu sivilizatsiyaga ham bog'liq bo'lgan jarayondir. Bugungi kunda musiqa ijodiyotiga XX asr kompozitorlarining ilmiy yondashuvini yanada izchil tadqiq etish lozimligi ayon bo'lmoqda. Shu bois, O'zbekiston kompozitorlaridan V.Uspenskiy va A.Kozlovskiylarning maqolalari, "M.Burhonov, M.Ashrafiy, T.Qurbonov va R.Abdullayevning kitob darsliklari, I.Akbarov, M.Tojiyev, F.Yanov-Yanovskiy, M.Bafojev, X.Rahimov, F.Alimov, D.Amanullayeva, O.Abdullayeva kabi ijodkorlarning o'quv-qo'llanmalari, ommaviy axborot vositalarida, xususan, gazeta va jurnallardagi «chiqishlari» tadqiqotning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi".

Musiqa badiiyat, san'at sifatida tom ma'noda ijro etish va uni eshitishdan boshlanadi. Sozanda kuyning yaratuvchisi bo'lsa, eshituvchi uning qabul qiluvchisidir. Xalqimizda «Sozandaga chinakam baho beruvchi, uning ustoz va

talabgori – eshituvchi»[2] degan gap bor. Bunda tushunib eshituvchi deganda shina vanda koʻzda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sharq mumtoz musiqa sanʼatining «zamzama», «tarona» (eski shakli «taronik» - «taronacha», «buxoracha», «fargʻonacha»ga oʻxshagan uslub tushunchasi), «suvora» («asp ros») kabi iboralarining ildizlari ham «Avesto» davrining urf-odatlariga borib taqaladi, bu eski musiqiy belgilar, keyingi davrlarda musiqa sanʼatining takomillashuvi natijasida yangicha maʼno va mazmunlar bilan toʻldirilgan hamda bu ramzlar zamonlar osha bizgacha avlodlararo muloqot madaniyatini namoyon qiladi. Shu maʼnoda biz, A.Nazarovning: «zardushtiylarning muqaddas kitobi boʻlgan Avestoda tanbur, vinig, chang, nay kabi koʻplab cholgʻu sozlari tilga olingan»[3] degan fikriga qoʻshilishimiz mumkin. Manbalarda yozilishicha, Zardushtning oʻzi ham tanburda kuylar ijro etgan.

«Avesto» yashtlari (gimnlari)ning oʻzi rechitativ tarzida ijro etilgan. Gimnlar xor boʻlib aytish mumkin boʻlgan band va takrorlanuvchi naqoratli yarim nasriy, yarim vaznli rivoyatlardan iborat boʻlgan. Shu bilan birga, xudolarga sigʻinish bilan bogʻliq marosimlarda muqaddas olov atrofida qoʻshiq aytilgan va raqs tushilgan» [4]. Xalqning bayram marosimlari, masalan: bahorda kun va tunning tenglashuvi - Navroʻz keng tarqalgan. Fikrimizcha, Navroʻz va shunga oʻxshash bayramlarda turli musiqa sadolari joʻrligida muqaddas olov atrofida qoʻshiqlar ijro etilishi orqali oʻsha davrda yashagan xalqlarning mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashi musiqa sanʼati bilan bogʻliq tarzda shakllanib borganligini anglatadi.

Sharqdagi ilk kasbiy musiqashunoslardan biri bastakor, hofiz va shoir Borbad Marvaziy (Falahbad)ni alohida tilga olish lozim. Jumladan, Borbad Marvaziy mumtoz musiqa sanʼatining asoschilaridan boʻlib, u sosoniy shohi Xisrav Parvez II saroyida koʻpgina mashhur sozanda va hofizlarga ustozlik qilgan. Uning tomonidan oʻz davrida haftaning yetti kuniga nisbat berib, «Xusravoniy» ohanglar toʻplami, oyning oʻttiz kuniga qiyoslab oʻttiz lahn (kuy yoʻlini), yilning 360 kuniga bagʻishlab shuncha nomdagi taronani yaratgan. O.Fayziyev va Q.Rahimov yozishicha: «U yaratgan kuy va taronalarning ayrim nomlari bizning

zamonamizgacha ham yetib kelgan. «Shashmaqom» ohanglari silsilasidagi «Ziروفkand», «Xusravoniy», «Navro'zi Bo'zrug», «Navro'zi Ajam», «Navro'zi Xoro» maqom yo'llarida Borbad ijodining an'analari bevosita davom etmoqda»[5]. Shu bilan birga, Ishoq Masviliy va Kindiy Sharqda ilk bor musiqa (harfiy) yozuvini ixtiro etishgan. Urmaviy esa ushbu yozuvni parda tizimiga moslashtirgan. Fikrimizcha, Sharqda yuqorida ta'kidlangan Borbad Marvaziy, Ishoq Masviliy va Kindiy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan kuy va taronalarni bizning davrimizgacha yetib kelishi orqali Sharq musiqa san'ati bir tizimga kelgan.

Buyuk mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy turli xil asboblarning tovush qatorlarini o'rgangan, Xuroson tanburiga alohida e'tibor bergan va o'zi mahalliy musiqa asboblarni yaratgan. Sh.Umarovning fikricha «Jangu – jadallarda, raqslarda, to'y tomoshalarda, ko'ngilochar bazmlarda ham qo'shiq kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» [6]. Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyotchisi bo'lgan. U o'z davrida mavjud bo'lgan barcha musiqa cholg'ularida chala olgan. Kuylarni, ayniqsa, nay va tanburda yuqori mahorat bilan ijro etgan. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, mutafakkir qonun cholg'usini ixtiro etgan, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan Ud sozini takomillashtirilishida juda katta hissa qo'shgan. O.Ibrohimov yozishicha: «Forobiy musiqa ilmi bilan shug'ullangan, qolaversa, faqat nazariy qarashlar bilangina cheklanmasdan, o'z davrida Ud cholg'usiga 5 torni qo'shgan, shuningdek, bastakor va mohir sozanda sifatida ham tanilgan»[7]. Bizning fikrimizcha, mutafakkirning musiqa san'ati borasidagi buyuk xizmatlari uning Sharq musiqa ilmiga asos solganligi va kasbiy musiqa amaliyotini yangi bosqichga ko'targani bilan asoslanadi.

Forobiyning musiqaga bag'ishlangan risolalarida Sharq musiqa nazariyasi yetarli asoslangan. Mutafakkirning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan kitobi Sharqning musiqaga bag'ishlangan eng mukammal va mashxur asari hisoblanib, u keyingi davr musiqashunoslari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Forobiyning musiqaga oid qarashlari «Kitobul musiqo al-kabir» asarida muayyan darajada takomillashgan.

Tahlil va natijalar. Sharq musiqa ilmining shoh asari «Kitabul musiqa al-kabir»da Forobiy iyqo' – ritmikani chuqur falsafiy-nazariy asoslarda idrok etib, ularni Mavorounnahr, Xuroson, Eron va Arab sharqi badiiy musiqa an'analari ritmikasining matnida tahlil etgan.

Markaziy Osiyoning arab xalifaligiga qo'shib olinishi ma'lum darajada ijobiy ahamiyat kasb etgan. Xususan, arablar o'z navbatida musiqa san'ati sohasida mahalliy aholidan ko'pgina narsalarni o'rganib oldilar. A.Isfaxoniyning arab tilida yozilgan «Qo'shiqlar kitobi»ga ko'ra juda ko'p arablar Markaziy Osiyo kuylaridan foydalangan. Masalan, Musadjiq nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi arab qo'shiqchisi Markaziy Osiyoda bo'lib, turli xil kuylarni tanlab olganligi va ular zaminida qo'shiqlar ijrosi tizimini yaratganligini e'tirof etish lozim. Boshqa bir qo'shiqchi – Ibn Muqriz esa birinchi bo'lib Markaziy Osiyolik qo'shiqchilardan o'rgangan holda arab baytlarini ijro eta boshlagan.

Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy ham musiqa san'ati borasida bir qator ijobiy fikrlarni bayon qilgan. Olimlar orasida shifo uslublari haqida bahs ketganda, shogirdlaridan biri Xorazmiyga - «Siz insonlarni davolashda nimani afzal ko'rasiz, shogirdlaridan biri Xorazmiyga - «Siz insonlarni davolashda nimani afzal ko'rasiz, dori-darmonnimi yoki jarrohliknimi?» - deb savol berganida Xorazmiy «Mening vatanimda ularning ikkalasidan ham musiqaning shifobaxsh kuchini ustun tutadilar» deb javob bergan. Xorazmliklarning oddiy odamlaridan, hunarmandlaridan tortib eng oliy tabaqa vakillarigacha o'zini soz san'ati bilimdoni deb hisoblagan. Beruniyning dalolat berishicha, Muhammad Xorazmshoh (Ma'mun II) musiqa va she'riyatni chuqur idrok qiladigan, shoir va sozandalarga nozik uqtirishlar qila oladigan podshoh bo'lgan. Tarix kitoblarida Ma'mun akademiyasida musiqashunoslik ilmiga e'tibor berilganligi ham ta'kidlanadi. B.Madrimov yozishicha: «Xorazmshoh Sulton Muhammad o'zi barbat (ud)da navba (turkumli asar)lar chalib huzur topishni odat etgan. Hattoki Xorazmshoh muhim davlat ishlariga qo'l urishdan oldin unga ruhiy tayyorlanib, miriqib kuy chalib, aql va tuyg'ularini sozlab bo'lgandan keyin kirishar ekan»[8]. Bizning fikrimizcha, Ma'mun akademiyasida musiqashunoslik ilmini rivojlanishi uchun Muhammad Xorazmshoh tomonidan keng imkoniyatlarning yaratilishi u yerdagi

musiqashunoslik bilan shug'ullangan olimlar ilmining yanada yuksalishiga olib kelgan.

O'rta asr Sharq mutafakkirlari tomonidan musiqa mehnat marosimlaridagi roli, insonning musiqani olam tuzilishi bilan, tabiatdagi o'lish va tirilish haqidagi miflar bilan bog'lashga bo'lgan intilishlarini alohida ta'kidlaganlar. Xorazmiyning «Mafotih ul-ulum» qomusiy kitobida ham musiqa ilmiga oid maxsus bob ajratilganligi musiqa ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu bobda Sharq musiqa san'atining o'ziga xos ilmiy va falsafiy jihatlari, uning insonlar ma'naviy dunyosiga ulkan ta'sir doirasi, shu bilan birga, musiqa san'atining inson ruhiyatida katarsis (poklanish) jarayonining yuzaga kelishiga yordam berishi bayon qilingan.

Zamonasining eng «Buyuk ustoz - Shayxi sharif» unvonini olgan qomusiy olim Faxriddin Roziy musiqashunoslikning rivojiga munosib hissa qo'shgan. Uning «Jome' al-ulum» qomusining musiqaga bag'ishlangan qismi Farobiy va Ibn Sino bilan keyingi davrlar o'rtasidagi juda muhim bosqich hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan biz B.X.Madrimovning «Roziyning risolasi Farobiy va Ibn Sinolarning arab tilida yaratilgan musiqiy asarlarida mahalliy tillardagi iboralarning qo'llanilishi, masalan, ud cholg'usining qadimgi nomi «barbat» bo'lganligi haqidagi mulohaza bilan ham farq qiladi [8, 16-b] degan fikriga qo'shilamiz.

Bizning fikrimizcha, qadim manbalarni o'rganish nafaqat Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tillaridagi musiqiy risolalarni o'rganishga mustahkam zamin bo'ladi, balki an'anaviy musiqa san'atini teran idrok etish, hozirgi zamon milliy o'zbek musiqasining falsafiy ma'nosini anglash, asrlar davomida ustoz musiqachilarning bir necha avlodi tomonidan yaratilgan maqomlarni tasniflash va ularning davomiyligini ta'minlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hirot musiqa namoyandalarining homiysi va rahnamosi sifatida buyuk alloma Alisher Navoiyni ko'rsatish kerak, albatta. Garchi Navoiyning bevosita musiqa ilmiga oid asari yoki bastalagan aniq bir kuyi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham, biroq manbalarda uning bir qancha musiqashunoslarga homiylik qilib, ularga musiqaga oid risolalar yozishga buyurtma berganligi qayd etilgan.

Bevosita Navoiyning homiyligi va buyurtmasiga binoan yozilgan musiqaga oid risolalar, mutafakkirning o'zlari qayd etishlaricha beshta bo'lgan. Ular quyidagilar:

1. Abdurahmon Jomiy - «Risolai musiqiy».
2. Zaynulobidiyn Husayniy - «Qonuni ilmi va amali musiqiy».
3. Uamoliddin Binoiy - «Risola dar musiqiy».
4. Abu Alishoh Bo'ka - «Aslul vasl».
5. Xoja Shahobiddin - «Abdulloh Marvarid. Risolai musiqiy».

Darhaqiqat, A.Navoiyning «Munojot» asarini oladigan bo'lsak, bugungi kunda mazkur qo'shiqqa raqsga tushib, to'y-tantanalarda keng yangraydi. Lekin, uning falsafiy ma'nosiga keladigan bo'lsak, muallif Allohga murojaat etib, unga o'z dardlarini izhor etishini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi misollar o'zbek musiqa san'atida juda ko'p uchraydi. Xo'sh, bunga sababchi va talqinni noto'g'ri yo'naltirilishida kimning o'рни bor? – degan savol paydo bo'ladi. Albatta, bastakor, xonanda va zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak «oranjirovka» ustalarining o'рни muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Sharq olimlari dastlab musiqani falsafa ilmlaridan biri deb hisoblaganlar, binobarin o'zlarining qomus tarzda yozgan kitoblariga kiritganlar. Bunda ular shubxasiz musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar.

Umuman, o'z vaqtida ulug' ustozlar qo'li bilan bitilgan mo'tabar musiqa ilmlarining keng ilmiy muomalaga joriy etilishi va rivojlantirilishi umumbashariy miqyosga molik tadbiridir. Vaholanki, u bir vaqtlar deyarli uzilish arafasiga yetib qolgan jonli udumlarning vorisiylik rishtalarini tiklashdagi amaliy ahamiyati bilan bir qatorda, o'tmishning buyuk musiqashunoslaridan meros qolgan ilmiy yutuqlarni zamonaviy fan taraqqiyoti xizmatiga jalb etish imkoniyatini ham tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyatlar

1. Abrarova M.F. XX-XXI asr kompozitorlarining adabiy-tanqidiy ijodiyotida milliy va umuminsoniy tamoyillar: San'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zDK, 2018. – B. 9-10.
2. Tursunova L. Yoshlar musiqa madaniyatini tadqiq etishning dolzarb vazifalari // Международный научный журнал № 11 (100), част 2 «Новости образования: исследование в XXI веке». 2023. – B. 657.
3. Назаров А.Ф. Мумтоз ийқо назарияси Форобий ва Ибн Синонинг музикий ритмика таълимоти. Санъатшунослик бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 1995. – Б. 9-10.
4. Назаров А. Антик давр musiqa madaniyati. – Тошкент: 2009. – Б.19.
5. Файзиев О., Раҳимов Қ. Борбад – Шарқ санъати асосчиларидан бири // Санъат йўналишларида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш: изланиш, ечим ва истиқболлар: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Бухоро: 2013. – Б.12-14
6. Umarov Sh. Musiqa cholg'ularini o'rganish (Qashqar rubob) kitobi. – Toshkent: 2018. – B. 9.
7. Иброҳимов О.А. IX - XII асрлар ўзбек musiqa madaniyati // Санъат йўналишларида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш: изланиш, ечим ва истиқболлар: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Бухоро: 2013. – Б.10.
8. Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – B.5-6.